



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JALB QILGAN HOLDA STATISTIK KUZATUVLARNI TAKOMILLASHTIRIB BORISH ISTIQBOLLARI

Muallif: Abdusalomova Istoraxon Ilhom qizi¹

Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrası PhD katta o‘qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17340508>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada statistika faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish yo‘llari o‘rganilgan. Statistika faoliyatini zamonaviy AKT asosida tartibga solish va ulardan unumli foydalanish, ushbu faoliyatning axborot tizimini shakllantirish hamda statistik ma‘lumotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanishdagi mavjud muammolar tahlil qilingan.

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, Statistika agentligi, rivojlanish, istiqbollar, innovatsiyalar, raqamli transformatsiya.

KIRISH

Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, milliy statistikamizni yanada rivojlantirish va uning barcha jabhalarini yanada takomillashtirishda aso-siy omil bo‘lib raqamlashtirish hisoblanadi. Iste‘molchilarning statistik axborotlarga bo‘lgan talabining kundan-kunga ortib borishi va tezkor axbo-rotlarga ham talabning yuksalishi bir vaqtning o‘zida statistika tizimi ol-diga yangi talablarni qo‘yib, bu o‘z o‘rnida respondentlarning statistik yuk-lamasini kamaytirish ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Yaqin yillargacha mamla-katimiz statistikasi asosan davlat organlarining ehtiyojini qondirishga o‘z faoliyatini yo‘naltirilgan edi. Hozirgi kunga kelib tijorat, ilmiy va ta‘lim tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va jismoniy shaxslar sifat-li hamda detallashgan tezkor statistik axborotlarga bo‘lgan talabi keskin ortib ketdi. Shuning uchun ham respublikamiz milliy statistika tizimi yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda natijaviy statistik axborot-larni qayta ishlash va tarqatish bo‘yicha o‘z yondashuvlarini tubdan o‘zgarti-rishlari kerak bo‘ladi. Buni respondentlardan statistik hisobotlarni yi-g‘ishning davriyligini o‘zgartirish va ularga ortiqcha yuklamalarni qo‘yish hisobiga amalga oshirish kerak emas.

ASOSIY QISM

Hozirgi kunda respondentlar statistik hisobotlarini elektron va qog‘oz shaklda ham topshirish huquqlari bor. Birlamchi statistik ma‘lumot-larda xatoliklarni paydo bo‘lishiga, ularni qog‘oz ko‘rinishda shakllantirish bosqichida arifmetik-mantiqiy nazoratning yo‘qligidir. Ular odatda, bux-galteriya hujjatlari asosida statistik hisobotlarni kompyuter orqali to‘l-dirish jarayonida mavjud xatoliklarni aniqlashadi. Shuning uchun ham res-pondentlar tomonidan statistik hisobotlarni elektron shaklda topshirish byudjet harajatlarini qisqartiradi va birlamchi statistik ma‘lumotlar



sifatini yuksaltiradi. Statistik hisobotlar aniqliligini yuksaltirish uchun har bir hisobot shakli bo'yicha respondentlarga yo'riqnomalar ishlab chi-qilgan va *e-stat 4.0* axborot tizimining har bir darajasida joylashtirilgan bo'lishi kerak.

Shuni ta'kidlash joizki, respondentlar tomonidan *e-stat 4.0* axborot tizimi orqali statistik hisobotlarni qo'lda to'ldirish o'rniga, birlamchi buxgalteriya hujjatlari asosida hisobotlarni avtomatlashtirilgan rejimda shakllantirish, nafaqat birlamchi statistik ma'lumotlar ishonchliligini oshiradi, balki statistik hisobotlar taqdim qilishda respondentlar harajatlari qisqartiradi.

Statistik ma'lumotlarni taqdim qilish jarayonlarini raqamlashtirish statistik hisobotlar to'liqligi va ishonchliligini tubdan yuksaltiradi, statistik hisobotlarni yig'ib olish va birlamchi statistik ma'lumotlarni qayta ishlash muddatlarini qisqartiradi, jumladan:

- buxgalteriyaning birlamchi hisobini avtomatlashtirish va uning asosida statistik hisobotlarni avtomatik ravishda shakllanishi hisobiga oylik, choraklik va yillik davlat statistika hisobotlarini topshirish muddatlarini 4-5 barobargacha qisqartirish mumkin bo'ladi;
- kelib tushgan birlamchi statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va rasmiy statistik axborotlarni shakllantirish jarayonlarini 2-3 barobargacha qisqartirishga zamin yaratib beradi;
- *e-stat 4.0* axborot tizimining boshqa vazirlik va idoralarning turdosh axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasi hisobiga statistik hisobotlar-dagi ayrim ko'rsatkichlarni avtomatik shakllantirish imkoni yaratiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, statistik hisobotlarni yig'ish respondentlar tomonidan birlamchi statistik ma'lumotlarni tayyorlash va tanlanma statistik kuzatuvlar shaklini to'ldirish bilan bog'liq bo'lgan harajatlari qilishlariga to'g'ri keladi. Bizning ekspert baholashlarimiz bo'yicha faqat yillik hisobot davrida barcha statistik hisobotlar shaklini qog'oz ko'rinish-da topshirishlari uchun respondentlar 2,5-3,1 mlrd. so'm atrofida harajat qilishib kelishgan. Raqamli texnologiyalarning ushbu jarayonlarga keng joriy qilinishi ushbu harajatlarni tubdan qisqartirishga olib kelmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida statistik hisobotlarni shakllantirish, onlayn jo'natish va qabul qilib olish hamda qayta ishlash jarayonlarini to'liq avtomatlashtirish hisobiga olinadigan iqtisodiy samaradorlikni quyidagi omillar ta'minlab beradi:

- raqamli texnologiyalar tezligining yuqoriligi hisobiga ananaviy operatsiyalarni bajarish tezligining yuqori bo'lishi;
- yagona statistik ma'lumotlar bazasining barpo etilishi va undan ko'p marta foydalanish hisobiga statistik ishlarni bajarish sifatining yuksalishi;

statistik hisobotlarni topshirish va qabul qilib olish davrining qisqarishi hisobiga statistika tizimining turli bo'g'inlariga axborot xizmat ko'rsatishni yaxshilash.

XULOSA

Bizning fikrimizcha, statistik hisobotlarni topshirish bilan bog'liq bo'lgan respondentlarning yuklamasini kamaytirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib rasmiy statistik axborotlarni shakllantirish uchun asos bo'lmish ma'lumotlarni alternativ manbalardan olish va ulardan maksimal foydalanish hisoblanadi. Bundan tashqari, statistik hisobotlarni vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazalarini o'zaro integratsiya qilish orqali maqbullashtirish vazifasi ham qo'yilgan.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, statistik kuzatuvlarni samarali tashkil qilishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanishda bir qator muammolarga duch kelinmoqda. Lekin, shunga qaramasdan statistika hisobot-larini taqdim etishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanishning qu-yidagi afzalliklarini ko'rsatmoqda, ya'ni hisobotlarni topshirishda vaqtni tejash, shakllar talablariga muvofiq to'ldirishning to'g'riligi bo'yicha bir-lamchi nazorat tufayli xatolar sonini kamaytirish, statistik hisobot shakl-larini tez va o'z vaqtida yangilab turish, uzatiladigan ma'lumotlarning max-fiyiligini ta'minlash va statistika organlariga shaxsan tashrif buyurish zarur emasligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida statistika tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–6071-son Farmoni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "Statistika tizimini raqamlashtirish dasturi" rasmiy sayti. – <https://stat.uz>
3. Karimov, A. "Raqamli iqtisodiyot va uning statistik kuzatuvlardagi ahamiyati". – Toshkent moliya instituti ilmiy jurnallari, 2021 y.
4. Xonkeldieva, D. "Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish". – "Iqtisod va innovatsiya" jurnali, №4, 2022.
5. Begimqulov, U.Sh. "Raqamli transformatsiya jarayonida milliy statistika tizimi". – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti, 2022 y.
6. United Nations Statistics Division (UNSD). "Handbook on the Use of Digital Technology in Official Statistics". – New York, 2021.
7. OECD. "Digital Transformation in Statistics: Challenges and Opportunities". – Paris, 2020.
8. Mikhaylov, A. "Digitalization of Official Statistics: Global Trends and Perspectives". – Journal of Digital Economy, 2021.